

TALABALARNING KASBIY FAOLIYATINI REJALASHTIRISH VA MODELLASHTIRISH ORQALI ULARNI KASBIY KOMPITENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Matkarimova Maftuna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Zamonaviy ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar o'qituvchilarning kasbiy malakasini va mahoratini oshirishni talab qilmoqda. Kasbiy kompetentligini pedagogik fasilitatsiya asosida shakllantirishda asosiy tarkibiy qismlari va o'qituvchining asosiy operasion funksiyalariga asoslanib, mahorat guruhlari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetentlig, bilim, ko'nikma, shaxsiy sifatlar, pedagogik faoliyat, ta'lim paradigmasi, o'qitish metodlari va texnologiyalari, ijodiy individuallik va b.q.lar.

Аннотация: Изменения, происходящие в современной системе образования, требуют повышения профессиональной квалификации и мастерства учителей. При формировании профессиональной компетентности на основе педагогической фасилитации проявляются группы умений, исходя из основных компонентов и основных эксплуатационных функций педагога.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, знания, умения, личностные качества, педагогическая деятельность, образовательная парадигма, методы и технологии обучения, творческая индивидуальность и др.

Annotation: The changes taking place in the modern education system require the improvement of the professional qualifications and skills of teachers. The main components of the formation of professional competence based on pedagogical facilitation and skill groups are indicated, based on the main operational functions of the teacher.

Keywords: professional competence, knowledge, skills, personal qualities, pedagogical activity, educational paradigm, teaching methods and technologies, creative individuality, etc.

Pedagogning kasbiy kompetentligi, uning bilim, ko'nikma va shaxsiy sifatlari majmui bo'lib, bu komponentlar o'zaro integrasiyalangan holda uning muvaffaqiyatli pedagogik faoliyatini ta'minlaydi.

XIX va XX asrlar mobaynida jamiyatda yuz bergan keskin ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ta'lim tizimidan moslashuvchanlik va dinamik rivojlanishni, o'qituvchining kasbiy kompetentligi esa, aynan shu zamonaviy talablarga javob beradigan tarzda shakllantirilishi lozimligini talab qilgan.

Bugungi kunda zamonaviy pedagogika va ta'lim paradigmasi taraqqiyoti sharoitida o'qituvchilarning kasbiy faoliyatiga bo'lgan yondashuvlar ham o'zgarib bormoqda. Endilikda pedagogning kasbiy kompetentligi ta'limning sifati va uning samaradorligini oshirishning kaliti sifatida qaralmoqda. Pedagogik faoliyat samaradorligi esa, o'z navbatida, talabalarning kasbiy kompetentligining rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim muassasalarida yaratiladigan pedagogik shart-sharoitlar, jumladan, o'quv dasturlarining mazmuni, o'qitish metodlari va texnologiyalari, shuningdek, o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash tizimlari talabalarning kasbiy kompetentligini pedagogik fasilitatsiya asosida shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. "Pedagogning kasbiy kompetentligi bu jarayonda markaziy o'rin tutadi, chunki faqatgina chuqur bilim va malakaga ega, shuningdek, o'z kasbini chuqur anglaydigan va talabalar bilan samarali muloqot qura oladigan o'qituvchi talabalarga sifatli ta'lim berish va ularni zamonaviy jamiyat talablariga javob beradigan darajada tayyorlash imkoniyatiga ega".¹

Shu bilan birga, pedagoglarning kasbiy kompetentligi o'z ichiga talabalarning turli shaxsiy va ijtimoiy muammolarini tushunish va ularga yechim topish qobiliyatini ham oladi, bu o'z navbatida, ta'lim muassasasida yaxshi o'quv va tarbiyaviy muhitni yaratishga yordam beradi, bu muhit esa, talabalarning o'z potentsiallarini to'laqonli ro'yobga chiqarishlariga imkon beradi. Pedagogning kasbiy kompetentligi talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan pedagogik shart-sharoitlarni yaratishda muhim omil hisoblanadi.

Bu kompetentlik ta'lim jarayonining barcha jihatlarini qamrab oladi va talabalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashda kalit rol o'ynaydi. Pedagogning kasbiy kompetentligi ta'lim muassasasining umumiy muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi va talabalarning kasbiy kompetentligining rivojlanishi uchun zarur bo'lgan pedagogik shartsharoitlarni yaxshilashga yordam beradi.

Professor A.Xoliqovning yozishicha, shaxsiy sifatlar tizimida: milliy mafkuraviy onglilik, milliy odoblilik, farosat, nozik didlik, o'z kasbiga sadoqat va vijdoniylik, tashabbuskorlik, bolajonlik, talabchanlik, adolatparvarlik, pedagogik odob, tadbirkorlik, qat'iylik, har qanday vaziyatda o'zini idora qila olish, millatlararo muloqot madaniyati, kuzatuvchanlik, samimiylik, topqirlik, kelajakka ishonch, xushmuomalalilik kabi fazilatlarga ega bo'lishi kerak."²

Zamonaviy ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar o'qituvchilarning kasbiy malakasini va mahoratini oshirishni talab qilmoqda. Kasbiy kompetentligini pedagogik fasilitatsiya asosida shakllantirishda asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

1. Texnologik kompetensiya: Bu pedagogik va texnologik bilim va ko'nikmalarni egallashda namoyon bo'ladigan shaxsiy xususiyatlarni, motivasiyani, ijtimoiy va axloqiy munosabatlarni hamda o'rganish natijalarini o'z ichiga oladi.

2. Ijtimoiy va huquqiy kompetensiya: Davlat institutlari va odamlar bilan o'zaro munosabatlarni, shuningdek, kasbiy muloqot va xatti-harakatlarni egallash qobiliyatini o'z ichiga oladi.

3. Shaxsiy kompetensiya: Doimiy kasbiy o'sish va malaka oshirish qobiliyatini, shuningdek kasbiy ishda o'zini o'zi tahlil qila olishni nazarda tutadi.

¹ Ячина Н. П., Мухутдинова Т. З., Хазиева Н. Н. Профессиональная компетентность как показатель качества образования // Вестник Казанского технологического университета. 2009. №2. УРЛ: <https://cyberleninka.ru/article/n/professionalnaya-kompetentnost-kak-pokazatel-kachestva-obrazovaniya> (дата обращения: 25.07.2024).

² А. Холіков Pedagogik mahorat -T., "Iqtisod-moliya", 2011.

4. Maxsus kompetensiya: Muayyan faoliyat turlarini mustaqil bajarish, odatiy kasbiy vazifalarni hal qilish va o'z ishining natijalarini baholash qobiliyatini o'z ichiga oladi.

5. Ekstremal kompetensiya: To'satdan murakkabroq sharoitlarda, baxtsiz hodisalar, texnologik jarayonlardagi uzilishlar paytida harakat qilish qobiliyatini nazarda tutadi.

Ushbu kompetensiyalar kasbiy va pedagogik mahoratning rivojlanish darajasi bilan baholanadi. O'qituvchining asosiy operasion funksiyalariga asoslanib, quyidagi mahorat guruhlar ajratiladi:

Gnostik ko'nikmalar: Yangi ma'lumotlarni olish, muhim narsalarni ajratib ko'rsatish, pedagogik tajribani umumlashtirish va tizimlashtirish qobiliyati.

G'oyaviy ko'nikmalar: Talabalar o'rtasida siyosiy-ma'rifiy ishlarni olib borish va pedagogik bilimlarni targ'ib qilish qobiliyati.

Didaktik ko'nikmalar: Aniq o'quv maqsadlarini aniqlash, pedagogik vaziyatlarni qurish va o'quv materialini tushuntirish qobiliyati.

Tashkiliy va uslubiy ko'nikmalar: Ta'lim jarayonini amalga oshirish, motivasiyani rivojlantirish va o'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil etish qobiliyati.

Kommunikativ va rejissyorlik mahorati: Pedagogik muloqotni boshqarish va ta'sirchan kommunikasiya qilish qobiliyati.

Bashorat qilish qobiliyatlari: Pedagogik faoliyatning natijalarini oldindan ko'ra bilish va muvaffaqiyatli strategiyalarni tanlash qobiliyati.

Refleksiv ko'nikmalar: O'z-o'zini tahlil qilish va kasbiy xulq-atvorni baholash qobiliyati.

Bu ko'nikma va mahorat o'qituvchining kasbiy faoliyatida muhim rol o'ynaydi va ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirishda asosiy omil hisoblanadi.

Hozirgi zamonda oliy kasbiy ta'lim tizimi jamiyat ehtiyojlariga, ya'ni ijtimoiy buyurtmaga qaratilgan holda rivojlanmoqda. Mehnat bozori shiddat bilan o'zgarayotgan bir paytda ta'lim jarayonining asosiy natijalari bevosita iste'molchilari – bu ish beruvchilardir. Ish beruvchilar esa bitiruvchilar tayyorgarligi darajasini ularning kasbiy malakasi, amaliy ko'nikmalari, ishlab chiqarish sharoitlariga moslashuvchanligi va real muammolarni hal etish qobiliyati orqali baholaydilar. Shuning uchun oliy ta'lim muassasalari oldida nafaqat nazariy bilimga ega, balki raqobatbardosh, moslashuvchan, innovatsion fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlash vazifasi turibdi.

Kasb ta'limining asosiy maqsadi — o'quvchilarni muayyan vaziyatlarda ma'lum faoliyat turini samarali amalga oshirishga qodir bo'lgan malakali, kompetent mutaxassis sifatida shakllantirishdir. Bunda o'quv jarayoni faqatgina bilim berish bilan chegaralanmay, amaliy mashg'ulotlar, dasturiy ta'minot bilan ishlash, simulyatsiyalar, loyiha faoliyati va real sektor bilan hamkorlik orqali boyitiladi. Chunki zamonaviy ishlab chiqarish nafaqat nazariy tayyorgarlikni, balki yangicha texnologiyalarni o'zlashtira oladigan, texnik jarayonlarni tahlil qila biladigan, ijodiy yondashuvga ega mutaxassislarni talab etadi.

Sanoatda yuqori texnologiyali jarayonlar, raqamlashtirish, avtomatlashtirish, robototexnika va sun'iy intellektning keng joriy etilishi mutaxassislarning kasbiy vazifalar tarkibini tubdan o'zgartirmoqda. Ko'plab yo'nalishlarda kasblar transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda, yangi kompetensiyalar paydo bo'lmoqda, eskilari esa o'z ahamiyatini

yo'qotmoqda. Bunday sharoitda zamonaviy bakalavr bitiruvchisi nafaqat umumiy va maxsus bilim, ko'nikma va malakalar majmuiga, balki ko'p tarmoqli mutaxassislar jamoasida samarali ishlashni ta'minlaydigan shaxsiy fazilatlar – mas'uliyat, tashabbuskorlik, tanqidiy fikrlash, kommunikativlik, moslashuvchanlik va liderlik qobiliyatlariga ham ega bo'lishi zarur.

Shuningdek, bugungi ish beruvchi bitiruvchidan muammolarni tahlil qila olish, tez o'rganish, yangi sharoitga moslasha olish, loyiha faoliyatida ishtirok etish, innovatsion g'oyalarni ilgari surish va ularni amaliyotga tatbiq eta olish kabi yuksak kompetensiyalarni kutadi. Shu bois oliy ta'lim tizimi nafaqat bilim beruvchi, balki innovatsion fikrlashni rag'batlantiruvchi, talabani mustaqil izlanishga yo'naltiruvchi, jamoaviy ishlash madaniyatini shakllantiruvchi muhit yaratishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy iqtisodiyot sharoitida oliy kasbiy ta'limning vazifasi — mehnat bozori ehtiyojlariga mos, raqobatbardosh, yuqori malakali, ijodkor va ijtimoiy faol mutaxassisni tayyorlashdan iborat. Bunday mutaxassis esa nafaqat kasbiy bilimlarga, balki keng qamrovli shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarga ega bo'lishi bilan jamiyat rivojiga munosib hissa qo'sha oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ячина Н. П., Мухутдинова Т. З., Хазиева Н. Н. Профессиональная компетентность как показатель качества образования // Вестник Казанского технологического университета. 2009. №2. УРЛ: [хттпс://сйберленинка.ру/артисле/н/профессиональнаякомпетентност-как-показател-качества-образования](http://cyberleninka.ru/artisles/n/professionalnaya-kompetentnost-kak-pokazatel-kachestva-obrazovaniya) (дата обращения: 25.07.2024).
2. A. Xoliqov Pedagogik mahorat -T., "Iqtisod-moliya", 2011.
3. Зеер Э., Самаюк Э. Компетентностный подход к модернизации профессионального образования // Высшее образование в России. 2013. № 4. - С.23-29.
4. Педагогическое образование в современном обществе // Монография / под ред. д.п.н., профессора Т.М. Трегубовой. – Казань: ТРИ «Школа», 2016. –46 с.
5. Качалов А.В. Педагогик университет талабаларининг ижодий мустақиллигини шакллантиришнинг педагогик шартлари // Урал давлат университети янгиликлари. Таълим, фан ва маданият муаммолари. - 2009. - 1/2(62). -Б.212-217.